FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 3, 2024-yil DOI:10.56292/SJFSU/vol30_iss3_2t/a298

UO‘K: 811.512.133`37:398.9

KOGNITIV LINGVISTIKADA KONSEPT VA MAQOL TUSHUNCHASI MUNOSABATI

ОТНОШЕНИЯ КОНЦЕПТА И ПОСЛОВИТЕЛЬСТВА КОНЦЕПТА В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

CONCEPT AND PROVERB CONCEPT RELATIONSHIPS IN COGNITIVE LINGUISTICS

Nargizaxon Umarova Rustamovna[1]
[1]Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori, professor

Odinaxon Xolmatova Uktamovna[2]
[2]Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada kognitologiyava uning o‘rganish predmetlari, kognitiv faoliyat va uning tilshunoslik bilan aloqasi haqida so‘z boradi. Kognitiv tilshunoslikda eng asosiy o‘rganiladigan atama – konsept hamda uning paremiyalar asosini ham tashkil qilishi, semiotika va kognitiv fanlar mutaxassislarining e’tiborini paremiologik tizimni o‘rganish jalb qilishi, chunki paremiyalar og‘zaki muloqot qonuniyatlarini, bilimlarni yaratish, mustahkamlash va ulardan foydalanish qonunlarini o‘rganish uchun noyob material berishi haqida firklar keltirilgan.

Аннотация

В статье говорится о когнитологии и предмете ее изучения, познавательной деятельности и ее связи с лингвистикой. Наиболее основным изучаемым термином в когнитивной лингвистике является понятие и его основа паремии, изучение паремиологической системы привлекает внимание специалистов семиотики и когнитивных наук, поскольку паремии – это законы устного общения, законы приобретения, закрепления и использование знаний считается, что оно дает ценный материал для обучения.

Abstract

The article talks about cognitology and its subjects of study, cognitive activity and its connection with linguistics. The most basic studied term in cognitive linguistics is the concept and its basis of paremiues, the study of the paremiological system attracts the attention of experts of semiotics and cognitive sciences, because paremiues are the laws of oral communication, the laws of acquiring, strengthening and using knowledge. It is believed that it provides valuable material for learning.

Kalit so‘zlar: *kognitologiya, konsept, dunyoning lisoniy tasviri, kognitiv semantika, stereotip, ssenariylar (skriptlar) va qoliplar.*

Ключевые слова: *когнитология, концепт, языковая репрезентация мира, когнитивная семантика, стереотип, сценарии и закономерности.*

Key words: *cognitology, concept, linguistic representation of the world, cognitive semantics, stereotype, scripts and patterns.*

KIRISH

Kognitologiya – bilim va tafakkur, borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish, anglash, idrok qilish natijalari to‘g‘risidagi fan bo‘lib, u to‘plangan ma’lumotlarning muayyan tizimiga aylanib, inson ongida ma’lum bir tarzda joylashgan hamda o‘z tabiatiga ko‘ra tafakkurning kognitiv jarayonlaridan tashkil topgan. Kognitiv tilshunoslik til va uning sohibini birgalikda o‘rganadi. A.V.Kravchenkoning ta’kidlashicha, til bilishning ajralmas qismi bo‘lib, u madaniy, ruhiy, aloqaviy, vazifaviy omillarning o‘zaro munosabatini aks ettiradi [1;37].

Kognitologiyada bilish faoliyati natijasida yuzaga kelgan bilim (inson xotirasida saqlangan, tizimlashtirilgan ma’lumotlar), ularni to‘plash va qo‘llash usullari tadqiqi o‘rganilsa,

bilim olish va saqlash, uni amalda qo‘llash hamda uzatish manbayi va nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo‘lgan til tizimi – kognitiv tahlil obyekti hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslik atamasi mazmunan inglizcha «cognitive» (bilishga oid) so‘zi bilan bog‘liq[2;10].

Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir. Kognitiv faoliyat bevosita til bilan bog‘liq holda kechadi, zero, til vositasida tajriba va bilim almashiniladi, axborot uzatiladi, bilish jarayoni va uning natijalari bilimning lisoniy tizimini, ya’ni uni tartiblashtirish, xotirada saqlash bilan bog‘liq lisoniy vositalarni o‘rganuvchi tilshunoslik fani bilan aloqadordir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kognitiv tilshunoslik haqida Y.S.Kubryakova quyidagi fikrni bildiradi: «Kognitologiya ko‘p qirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida shakllangan kognitiv tilshunoslik, o‘z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko‘zlaydi, zotan, unda lisoniy va bilim strukturalari o‘rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobilliklar tahlili, izohi rejalashtiriladi»[3; 26-31].

Kognitiv lingvistikaning markaziy konsepsiyasi bo‘lgan bilish zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan kognitiv yoki ruhiy jarayonlarning yig‘indisi (aqliy, kognitativ) – dunyoni idrok etish, atrofda sodir bo‘layotgan narsalarni oddiy kuzatish, turkumlash, fikrlash, xizmat ko‘rsatish sifatida tushuniladi. Har xil sezgi-idrok kanallari orqali odamga tashqaridan kelgan yoki inson tomonidan allaqachon qabul qilingan va qayta talqin qilingan axborotni qayta ishlashni bildiradi. Idrok insonning aqliy, intellektual qobiliyatlari namoyon bo‘lishi, uning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati, insonning atrofidagi olamda o‘z o‘rnini anglashi, o‘zini va boshqalarni baholashi qobiliyati bilan bog‘liq. Bularning barchasi insonga xos oqilona va serqirra xulq-atvor asosini tashkil qiladi [4;90-93].

Kognitiv jarayonlar «axborot signallari sifatida ishlaydigan sensorli ma’lumotlar markaziy asab tizimi, miya, har xil turdagi (tasvirlar, takliflar, qoliplar, ssenariylar) aqliy tasvirlarga aylantiriladi, ularni ajratib olish va qayta ishga tushirish uchun inson xotirasida saqlanadi» [5;85-96].

Olimlar yangi ma’lumotlarni qayta ishlash uchun ishlatiladigan tuzilmalar azaliy ekanligini aniqladilar. Yuqori darajadagi semantik ma’lumotlarni ifodalash uchun foydalaniladigan tuzilmalar ssenariylar (skriptlar) va qoliplar deb ataladi. Qoliplar – standart vaziyatlarni kognitiv qayta ishlashni ta’minlaydigan ma’lumotlar to‘plamidir (uning tarkibidagi komponentlar zarur bo‘lganda qo‘llash uchun xotirada saqlanadi yoki yaratiladi). Ular tilning ishlashida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular matnda mikro va makro darajada uyg‘unlikni o‘rnatadi, kerakli xulosalar beradi, shuningdek, tuzilish jihatidan o‘xshash voqeliklarga asoslangan holda yuz beradigan voqealiklarni bashorat qilishga imkon beradi.

Kognitiv tilshunoslikning tadqiq obyekti bilimlar haqidagi tasavvurlar strukturasi va ularning turli kognitiv jarayonlar (tushunish, tahlil, til axborotining qurilishi)da til imkoniyatlarini aniqlash, shu bilan bir qatorda, ularning paydo bo‘lishini o‘rganish kabilarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbek tilshunosi Sh.Safarovning fikricha, «kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi inson ongida kechadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog‘liq holda o‘rganishdir» [6;53].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, hozirgi zamon tilshunosligida har xil tafakkur turlarining asosi sifatida lingvistik va nolingvistik tafakkur hamda bilimlar mavjudligi allaqachon e’tirof etilgan. G‘arbda tilni faoliyatdagi tizim sifatida o‘rganish, shaxs nutqiga murojaat qilish kognitiv tilshunoslikning shakllanishidan ancha oldin sodir bo‘lgan. Bu I.A.Boduen de Kurtenye hamda Qozon, Sankt-Peterburg tilshunoslik maktablari vakillari g‘oyalariga borib taqaladi.

Hozirgi vaqtda tilni inson bilan bog‘lamay turib, uning fikrlarini, his-tuyg‘ularini, baholashlarini, sezgilarini o‘rganish mumkin emas. Ko‘pgina tadqiqotchilar «tilning tuzilishi va faoliyatining chuqur mexanizmlarini o‘rganish orqali biz ma’lum bir jihatdan intellektimizning ishlash qonuniyatlarini o‘rganamiz», degan g‘oyadan ilhomlanganlar. Shunday qilib, dunyoni tilda aks ettirishning chuqur, fundamental muammolari nafaqat lingvistik, balki dunyo haqidagi bilim va g‘oyalarimizdagi subyektiv hamda obyektiv munosabatlar bilan bog‘liq

bo‘lgan falsafiy, gnoseologik muammolardandir» [5;46]. Muammoga bunday yondashuv tadqiqotchilarni dunyoning lingvistik konseptualizatsiyasini o‘rganish, tildagi madaniy dominantlarni aniqlash bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilishga undaydi.

Kognitiv tilshunoslikda eng asosiy o‘rganiladigan atama – bu konseptdir. Chunki kognitiv tilshunoslik dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi fan bo‘lsa, konsept kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri sifatida madaniyat va inson o‘rtasida aloqa o‘rnatuvchi elementdir. Konsept atamasi o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab tilshunoslikda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Konsept tushunchasiga birinchilardan bo‘lib rus tilshunosi S.A.Askoldov tomonidan murojaat qilindi. U konseptga «bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlik» [2;267-280] sifatida izoh beradi. Aytish mumkinki, konsept – tushunchalar yig‘indisidir. Ular yordamida turli millat vakillari muloqotga kirishadi. Shunga ko‘ra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama xarakterga ega.

D.S.Lixachev o‘zining «Konseptosfera russkogo yazika» nomli ilmiy ishi[8;152-165]da konseptni «so‘zning lug‘aviy ma’nosi va insonning o‘z milliy qarashlari bilan to‘qnashuvi natijasida hosil bo‘ladigan fikrlash jarayoni mahsuli» deya e’tirof etgan bo‘lsa, konseptni «mental tuzilma va turli tarkib va ko‘rinishdagi bilimlar jamlanmasi yoki umumlashmasi» [2;26-31] ekanligi Y.S.Kubryakova qarashlarida aks etadi.

O‘zbek tilshunosligida ham «konsept» tushunchasi turli talqinlarga ega. Jumladan, Sh.Safarov konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qilishi, ular uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qilishini qayd etadi [3;17].

D.U.Ashurova esa konseptni mantiqiy, milliy xususiyatga ega bo‘lgan bir hodisa sifatida talqin qilib, konsept negizini aynan shu o‘rganilayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilim tashkil qilsa, uning ifodalanishini esa til vositalari (leksik, frazeologik, parameologik va h.k) ning mutanosibligi tashkil qilishini aytadi[5;11].

Professor G‘.M.Hoshimov konseptga quyidagicha ta’rif beradi: «Konsept – bu tafakkurda kechuvchi, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq nafaqat ikki muhim jarayon konseptualizatsiya – (konseptuallashtirish) va kategorizatsiya – kategoriyalashtirish)ning natijasi sanaladi, balki unga qo‘shimcha yana bir qator muhim jarayonlarning pirovard natijasidir va u yaxlit konseptual/kognitiv semantika sifatida lingvistik semantikaning kognitiv asosini tashkil etadi hamda unda til birligi o‘zining semantik sig‘imi bilan bog‘liq holda ma’lum darajada (qisman) aks etadi»[6;212-219].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bizningcha ham, konsept bir millatga tegishli bo‘lgan hayotiy tajriba natijalarini o‘zida namoyon etuvchi bilimlar va tasavvurlar yig‘indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo‘lgan munosabat, biror millatning umumiy o‘y-fikrlari va qarashlarini o‘zida mujassamlashtiradigan, insonni o‘rab turgan olamni anglash natijasida orttirilgan bilimlar yig‘indisi hamda tajribasida namoyon bo‘luvchi birlikdir.

Konsept paremiyalar asosini ham tashkil qiladi. Semiotika va kognitiv fanlar mutaxassislarining e’tiborini paremiologik tizimni o‘rganish jalb qildi, chunki paremiyalar og‘zaki muloqot qonuniyatlarini, bilimlarni yaratish, mustahkamlash va ulardan foydalanish qonunlarini o‘rganish uchun noyob material beradi. Bu turg‘un birikmalar asrlar davomida til jamiyati miqyosida qo‘llanib kelinib, avloddan avlodga o‘tib, hayotning barcha jabhalarida xalqning kommunikativ va kognitiv faoliyati quroli maqomini oladi.

Maqollar yaqin-yaqingacha xalq og‘zaki ijodining kichik shakllari hisoblanib, paremiologlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik ular strukturaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etildi. Hozirda ular pragmalingvistika, lingvokulturologiya hamda kognitiv lingvistikaning predmeti sanaladi.

Maqollar an’anaviy ravishda ular bilan bog‘liq bo‘lgan birliklardan farqli o‘laroq, boshqa kognitiv xususiyatga ega, ya’ni ularda lingvistik ong o‘zining majoziy ifoda mexanizmini amalga oshiradi va, shu bilan birga, tushunchalar atrofida shakllanadigan kognitiv tuzilmalar sifatida namoyon bo‘ladi. Maqollardagi kognitiv tabiat ko‘p jihatdan ularning frazeologik -

maqomi bilan bog‘liq bo‘lib, buni frazeologik va paremik semantikaning ko‘plab tadqiqotchilari tan oladilar.

N.F.Alefirenko frazeologik birliklarning kognitiv xususiyatini tavsiflab, konseptni «frazeologik ma’no hosil qiluvchi manba» sifatida ta’riflaydi [7;271].

I.V.Karasikning fikriga ko‘ra, til jamiyati uchun konseptning ahamiyati uning nominativ zichligida, ya’ni qator lingvistik sinonimlar (so‘z va iboralar), mavzuli turkum va sohalar, maqol va matallar, xalq og‘zaki ijodi va adabiy syujetlar bilan ifodalanishida namoyon bo‘ladi [4;75-80].

Maqol konsepsiyasi (konkret vaziyat tushunchasi) asosan individual xususiyatga ega, chunki bu vaziyatda maqol qo‘llanilishi so‘zlovchining vaziyatni ham referent, ham kommunikativ baholash natijasi bo‘lib, bunda maqol til sohibi uchun o‘z fikrini ifoda etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu o‘rinda maqol tushunchasi ko‘proq so‘zlovchining amalga oshishi mumkin bo‘lgan niyatini eslatadi, bu uning kommunikativ strategiyasini, adresant xohlagan vaziyatni yaxlit holda baholashni anglatadi.

Tushunchalar shaxsning aqliy faoliyati birligi va madaniy ifoda sifatida og‘zaki shaklda ifodalanadi va, birinchi navbatda, ular nutqda, kundalik muloqotda yoki har qanday izchil matnda namoyon bo‘ladi, bunda odam fikr va his-tuyg‘ularini o‘zining lingvistik qobiliyatlariga, shuningdek, suhbatdoshining irodasiga, his-tuyg‘ulariga, xatti-harakatlariga ta’sir qilish, zarur bo‘lgan muloqot qilish qobiliyatiga tayanadi.

Kongnitiv konseptlar individual mazmunli mental tuzilmalar bo‘lib, atrofdagi voqelikni tartibga soladi va qayta tizimlaydi. Madaniy konseptlar esa – bu jamoaviy mazmundagi mental tuzilmalar bo‘lib,ular o‘zlari tegishli bo‘lgan madaniyatning xususiyatlarini aks ettiradi.

V.I.Karasikning fikricha, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri ongda sodir bo‘ladi, shuning uchun har qanday lingvomadaniy tadqiqot bir vaqtning o‘zida kognitiv tadqiqot ham sanaladi. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan insondan madaniyatga, lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan esa madaniyatdan insonga tomon harakatlanamiz [8;97].

Odamlar jamoaviy yoki individual holda jamiyatda umumiy/xususiy, axloqiy-madaniy qonun-qoida, streotip va etalonlar yaratadilar. Ularning barchasi insonning ong-shuurida asrlar davomida yig‘ilgan mental bilim – konseptlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy tilshunoslikda konseptuallashtirish anglash hamda umumiy bilimlarni tizimlashtirish orqali namoyon bo‘ladi, ya’ni bir konsept haqida to‘laqonli bilimga ega bo‘lish uchun insoniyat ongi tezaurusidagi hosilalar birlashadi va yaxlit tasavvur shakllanadi. «Til birliklarini amal qilish muhitidan uzib olgan holda, shakliy va ma’noviy tomondan o‘rganish bir yoqlamalikka olib keladi, til birliklarining o‘zi ifodalayotgan obyektiv borliq bilan munosabati eng muhim nuqtalardan sanalishi, shakl va mazmunni tildagi shaxsiyat va kognitiv ong, pragmatik sharoit va muloqot muhiti bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish muhim natijalarni qo‘lga kiritishga, olam manzarasi in’ikosida inson va til mohiyatini aniqroq ochib berishga xizmat qiladi»[6;20].

Til voqelikni idrok etishning etnik xususiyatlarini ifodalaydi. Dunyoning o‘zbek tafakkuridagi olam manzarasi tasviriga xos madaniy tushunchalarini o‘rganish o‘zbeklar fikrlash tarzining etnik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bunda o‘zbek xalqining mentaliteti asosiy madaniy tushunchalar orqali aks ettiriladi, natijada, shu lingvomadaniyat vakillarining atrofdagi olam haqidagi tasavvurlari o‘z ifodasini topadi.

XULOSA

Maqollar olamning lisoniy manzarasi sifatida til lug‘at boyligining ajralmas qismini tashkil qiladi. Paremiyalarda kalit so‘zlar orqali amalga oshiriladigan madaniy tushunchalar milliy mentalitet va dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, o‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan ijtimoiy-madaniy munosabatlar, an’analar, urf-odatlar tizimini aks ettiruvchi tushunchalar, tasavvurlar, timsollar, streotiplar va baholarni birlashtiradi. Konseptual sohalar katta miqdordagi etnik-madaniy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, insonni va uning atrofidagi voqelikni tasvirlashda badiiy matnlarda kognitiv yo‘nalish yetakchilik qiladi [5;103-110].

Har qanday madaniyat o‘zining dunyoni idrok qilish konsepsiyasiga asoslanadi, o‘z tafakkuri va xulq-atvoriga doir stereotiplarni shakllantiradi.

Xalqning hikmatli so‘zlari nafaqat muhim hayotiy bosqich va voqealarni eslatadi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega stereotiplarni shakllantirgani va kognitiv salohiyati tufayli ham xalq donoligi namunalari maqomiga ega. Nutqda maqoldan foydalanish nafaqat nutqiy odat, balki lingvistik shaxs kognitiv qobiliyatlarining ancha yuqori ekanligidan ham dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кравченко А.В. Когнитивная лингвистика сегодня: интеграционные процессы и проблема метода // Вопросы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2004. – С.37.

2. Аскольдов С.А. Концепт и слово //Русская словесность.Оттеории словесности к структуре текста. Антология. – М: Academi, 1997. – С.267-280.

3. Кубрякова Е.С**.** Концепт // Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: МГУ, 1996а. – С.90-93.

4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.53.

5. Карасик В.И. Концепти-регулятивы // Язик, сознание, коммуникация: Сб.статей / Отв.ред. Красных В.В., Изотов И. – Москва: МАКС Пресс, 2005. – С.97.

6. Baxronova D.K. O`zbek va ispan tillarida olam manzarasining lingvokognitiv kategoriyalanishi: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б.21.

7. Самситова Л. Бошқирд тили манзарасидаги «яхши-ёмон» концептуал қарама-қаршилиги (мақол ва ҳикматли сўзлар материаллари асосида) // БДПИ газетаси. – М., 2017. – Б.103-110.

8. Алефиренко Н.Ф**.** Фразеология в свете современных лингвистических парадигм: монография. – М.: Элпис, 2008. – С.271.

9. Карасик В.И., Слишкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблем когнитивной лингвистики: Сб.науч.тр. – Воронеж, 2001. – С.75-80

10. Кубрякова Е.С**.** Что может дать когнитивная лингвистика исследованию сознания и разума человека // Международный конгресс по когнитивной лингвистике. – Тамбов, 2006. – С. 26-31.